

## BOBORAHIM MASHRAB IJODIDA TALMEH SAN'ATI QO'LLANILISHI

**Marjona Toshpo'lotova Nuriddin qizi**  
Shahrisabz davlat pedagogika instituti talabasi  
[marjonatoshpolotova0815@gmail.com](mailto:marjonatoshpolotova0815@gmail.com)

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada Boborahim Mashrab ijodida talmeh san'atining tutgan o'rni hamda uning mavzuviy tasnifi keltirilgan. Shu bilan birga, Islomiy tushunchalarning shoir ijodida talmehga olinganligi va ular bilan bog'liq tushunchalarning chambarchas holda kelishiga misollar berilgan.

**Kalit so'zlar:** *talmeh, ishoraviylik, badiiy san'at, Asmoyi husna, payg'ambarlar, Muhammad (s.a.v), 4 farishta, Azroil, Azozil, Shayton, Jabroil, Isrofil, Munkar-Nakir*

Boborahim Mashrab ijodida turlicha mumtoz badiiy san'atlarni ko'rish mumkin. Ammo bimalol ayta olamizki, shaxslarning nomlarini keltirish yoki ularga ishora qilish bilan bog'liq bo'lgan talmeh san'ati yetakchi badiiy san'atlardan biri hisoblanadi.

Mashrab she'riyatida shunday she'rlar borki, u boshdan oxirigacha har bir baytda kishilarning nomlarini sanab o'tadi. Masalan, uning "Qonimni to'kar ermish..." deb boshlanuvchi g'azali bunga misol bo'ladi.

Qonimni to'kar ermish Balx shahrida Mahmudxon,  
Taqdiri azal bo'lsa, naylay, anga bermay jon.  
Ming shukur xudoyimga Mansurga qo'shuldim men  
Ul ro'yi siyahlarkim Mansurni o'ldirgan.  
Shirin g'amida Farhod, tog'larga etib faryod,  
Ishq o'tida o'rtanib oxir chu fano bo'lg'on.  
Ul oshiqi Majnun ham Layliga bo'lib shaydo,  
Cho'llarida vatan aylab ko'z yoshi ravon o'lg'on.  
Ul zori Zulayxo ham Yusufga bo'lub shaydo,  
Ko'rdungmu xaloyiqg'a rasvoyi jahon o'lg'on.  
Ko'r Tohir-u Zuhroni xalq ichra bo'lib mashhur,  
Ko'nglini berib yorg'a ishqin yo'lida o'lg'on.  
Ishq o'tig'a o'rtangan ul Vomiqu Uzro ham,  
Mahshar kuni bo'lganda jannatda qilur javlon.  
Ko'r oshiq eranlarni, ey Mashrabi devona,  
Kelganda ajal jomi joni bilan sipqorg'on [1:148].



Ushbu g'azalda o'z zamondoshi Balx hokimi Mahmudxonni, o'zi tanlagan yo'l rahnamosi Mansur Hallojni, "Xamsa" turkumidagi dostonlardan Farhod va Shirin, Layli va Majnunni, payg'ambarlardan Yusuf va uning yori Zulayhoni, xalq og'zaki ijodidan Tohir va Zuhro, Vomiq va Uzroni nomlarini keltirib o'tadi. Va shu baytdan namoyon bo'lyaptiki, bitta g'azalning o'zida zamondoshlari, asar qahramonlari, payg'ambar va uning atrofidagi shaxslar nomi keltirilgan. Bundan tashqari piri komil hisoblangan Ofoq Xojaga u uddalay olmaydigan juda katta talablarni qo'ygan, natijada uni yengib chiqqan "Hozir qil" [1:66] g'azali ham xuddi yuqoridagi g'azali kabi to'liq ishoralardan iborat.

Shoirning she'rlarida keltirilgan ismlarni shartli ravishda 3 ga bo'lish mumkin:

1. Islom diniga oid voqea, hodisa, shaxslarga qilingan ishoralar
  - a) "Asmoyi husna" (Chiroyli ismlar) yani Ollohning ismlari va uning farishtalari nomlari keltirilgan baytlar
  - b) Muhammad (s.a.v) gacha bo'lgan payg'ambarlar nomlari keltirilgan namunalar
  - c) Muhammad (s.a.v) va choryorlar nomlari keltirilgan namunalar.
2. Asar qahramonlari va ijodkorlar nomlari keltirilgan namunalar.
3. Tarixiy shaxslar va zamondoshlar nomlari keltirilgan baytlar

Bu tasniflash, albatta, nisbiy tarzda olindi. Ushbu tasnifda eng qiyin ajratiladigan, o'quvchini chalkashtiradigan joyi bu "Asmoyi husna" – "Chiroyli ismlar", ya'ni Ollohning 99 ismi keltirilgan baytlardir. Go'zal ismlar – yuqorida aytganimizdek, Ollohning ismlari bo'lib, mazmunan uning sifatleri, fazilatlarini ifodalaydi. Qur'onda Allohni shu ismlar bilan yodga olish buyuriladi: «Allohning go'zal ismlari bordir. Bas, Uni o'sha ismlar bilan chorlanglar (yod etinglar), Uning ismlarida haqdan og'ib (noo'rin joylarda ularni qo'llaydigan mushrik) kimsalarni tark qilinglar» («A'rof» surasi, 180-oyat); «Alloh, deb chorlangiz, yoki Rahmon – Mehribon, deb chorlangiz. Qanday chorlasangizlarda (joizdir). Zero, U zotning go'zal ismlari bordir» («Al-isro» surasi 110-oyat). Ular musulmon ilohiyotida muhim o'rin tutadi, shu jumladan, adabiyotda ham salmoqli o'rinni egallagan. Alloh ismlari ko'p duolarda qo'shib aytiladi. So'fiylar o'z zikrlarida ham bu ismlarni kamolatga erishishning timsoli sifatida ishlatadilar. Allohni va uning ismlarini iloji boricha ko'proq eslab turish taqvodorlik namunasi hisoblanadi. Odatda tasbih donalari soni Alloh ismlari soni bilan tengdir. Al-Asmo al-Husnadan duoxonlar tumorlar sifatida foydalanishadi. Musulmon ilohiy adabiyotida Alloh ismlarini talqin qiluvchi risolalar ko'p, ismlar ro'yxati duo to'plamlaridan joy olgan. Nomlarning aksariyati Abdurahmon, Abdusamad («Allohning quli») kabi eng keng tarqalgan ismlarning tarkibiy qismi hisoblanadi. Qur'oni Karimning «Hashr» surasida (22-24-oyatlar) «Alloh go'zal ismlari»ning qisqa ro'yxati bor: ar-Rahmon, ar-Rahim, al-Malik, al-Quddus, as-Salom, al Mu'min, al-Muhaymin, al-Aziz, al-Jabbor, al-Mutakabbir, al-Xoliq, al-Bori', al-Musavvir. Boshqa hamma ismlar Qur'onning turli joylarida uchraydigan Alloh sifatlaridan kelib chiqadi va ular bilan bog'langan fe'llaridan hosil bo'lgan. 99 ta ism ro'yxati Abu Hurayra (601-679) rivoyat qilgan hadisda bor, ana shu hadisga ko'ra, Muhammad (s.a.v) 99 raqamini keltirganlar va har kim Alloh taoloning mazkur ismlarini birma-bir aytib chiqsa, albatta jannatdan joy ato qilinadi, deganlar. Albatta, bu darajadagi yuqori o'rinda turuvchi ilohiy tushunchalar adabiyotga ta'sirini o'tkazmay qo'ymaydi. Olloh ismlari ko'plab ijodkorlar asarlarida keltirilgan. Tasavvufiy yo'nalishda ijod qiluvchi Mashrab ijodini ham usiz tasavvur qilish mumkin emas, albatta. Lekin "chiroyli ismlar" qo'llangan har bir baytni talmeh sifatida ola olmaymiz, chunki ba'zi bir baytlarda ishoraviylik emas, Ollohg'a murojaat tarzida ismlar kelgan, yoki bazi bir o'rinlarda didaktik maqsadda, pand-nasihat yo'lida Olloh ismlari sanab o'tilgan. Bular esa talmeh san'ati qoidalariga zid. Masalan,

Talabda e'tiqodi tom bo'lsa, banda ul mo'min,

Agar sidqing durust bo'lsa, Xudo har yerga hozirdur. (Mabdayi nur)

Agarchi bandaman, Vohidligingga borman iqror,



Hamani shohi sansan, o'zga bir shohi jahonim yo'q. (Mabdayi nur)  
 Kimiki, obi chashmi yo'q, qo'yar *Haq* chashmiga do'zax,  
 Yopar aybingni oxir, munda doim navhagar yig'la. (Mabdayi nur)  
 Amalsiz xalqni olamda «Kalan'om» dedi *Xoliq*,  
 Samarsiz cho'bni meyor shul, otashda kuydurmog'. (Mabdayi nur)  
 Jahonni ibrat uchun xalq ayladi *Xoliq*,  
 Ki behunarni ko'rub, mard agar hunar topsa. (Mabdayi nur)

Yoki quyidagi baytda shoir Ollohning ismlarini ikki xil ma'noda qo'llab, juda go'zal so'z o'yini yaratgan. al-Avval – hamma narsadan avval, boshlanishi chegarasiz, al-Oxir – hamma narsadan boqiy, oxiri cheksiz, az-Zohir – borligi hamma tomonlama ayon bo'lmish zot, al-Botin – o'zi mavjud, lekin sezgi vositalarimizdan maxfiy zot kabi ma'nolarni bildiruvchi ismlar o'z tilimizda ham mavjud bo'lib, so'z o'yiniga zamin yaratgan.

Ham Avvaldur, ham Oxirdur va ham Zohiru ham Botin,  
 Muhaqqaq bandalar hozir bilur bir zoti Allohni. (Mabdayi nur)  
 Kimki o'z aybini bildi ul yetar Rahmoniga,  
 Diyda o'z aybingga och, digarga nuqson izlama. (Mabdayi nur)  
 Yetur xotiri pokingga Haqni yodini,  
 Xudo talab kishiga oxiri Xudo uchrar. (Mabdayi nur)  
 “Hama Arshu Zaminu Lavhi a'zam posboniman...” [2:16]

deb boshlanuvchi g'azalida Mashrab noodatiy tarzda yondashgan holda Ollohning bir necha sifatlarini ismiga ishora qilish orqali keltiradi. Al-Akbar – buyuk, Al-G'afur - gunohlarni yashirib, jazo bermay turuvchi, As-Sattor – kechiruvchi, avf etuvchi ismlari baytlarda tarjima qilinmagan holda berilgan bo'lsa-da, ma'nodan kelib chiqilsa, baytni to'ldiradi va talmehni tashkil qiladi.

Ulug' nomim erur Akbar, budur tasbehi payg'ambar,  
 Sari ojizlarimga ro'zi mahshar posboniman.  
 Nigohdorandaman, har kimki shak etsa kuyar beshak,  
 G'afur keldi bir otim hamchunon shohi jahoniman.  
 Na bo'lg'ay bandai xoki, ani nim javcha idroki,  
 Bir otim keldi Sattor, homili yaxshi yomoniman. (Mabdayi nur)

Talmehning eng muhim qoidasi aynan qandaydir nomning kelishi emas, ishoraviylik ekani ham mana shunda ko'rinib qoldi.

Ollohning ismlari kelganda u bilan birga ko'pincha farishtalar nomlari ham birga keladi. Adabiyotda ham farishtalar nomlari lirik janrlar tarkibida uchraydi va bunday hol Mashrab ijodida ham mustano emas. Qur'onda to'rt bosh farishtalar nomlari keltirilib, ular «al-muqarrabun» (yaqinlar, yaqinlashtirilganlar) deb atalgan. To'rt bosh farishta nomlari Jabroil, Mikoil, Isrofil, Azroil



bo‘lib, ularning har biri o‘z vazifasiga ega. Mashrab she‘riyatida ham ularning qilgan ishlari hamda vazifalariga ishora qilingan holda talmeh san’ati qo‘llangan.

Sidradin qildim safar to manzili Jibrilgacha,  
To Buroqi himmatim yuzlandi Mikoilgacha,  
Jon kafi dastimda bordim qasri Azroilgacha,  
Boqinam, o‘lmam, tirikman, so‘ri Isrofilgacha,  
Qoba kavsayni kezib, maydonda yurdim axtarib. (Mehribonim qaydasan)

**Isrofil** – “... Rivoyatga ko‘ra, Isrofil oxirat kuni haqida xabar berib nay chaladi. U gunohkorlarning do‘xatda qiynalayotganliklarini ko‘rib kunduzi 3 marta, kechasi 1 marta yig‘lar ekan. Isrofil haqidagi afsonalar islomga yahudiy-xristian manbalaridan kirgan” [5:349]. Mashrab ijodida ham Isrofilning nay chalish hodisasiga ishoraviylik asosiy omil hisoblanadi.

Bayon qilsam chidolmas nolishimga suri *Isrofil*,  
Maqomi Mahmudidin oyati «nasrun min alloh»ni. (Mabdayi nur)  
Sur *Isrofil*ni tortgan ro‘zi mahsharda o‘zum,  
Jumla oshiqqlar ichinda rind rasvoman bu vaqt. (Mehribonim qaydasan)

Ikkala baytda ham ko‘rib turibmizki, Isrofil nomidan oldin sur ya‘ni nay so‘zi ishlatilgan va Qiyomat kuni Isrofilning nay chalib, hammani ogohlantirishiga ishora qilingan.

**Jabroil** – “...Diniy aqidaga ko‘ra, Alloh irodasini payg‘ambarlarga yetkazib, vahiy keltiruvchi (xabar beruvchi), samoviy ofatlarni yer yuzida ijro qiluvchi farishta; barcha payg‘ambarlarga xudo tarafidan keladigan vahiyalar farishtalar ulug‘i Jabroil (as) orqali keladi. Jabroil Allohning irodasi bilan Muhammad (s.a.v) ga Qur‘on oyatlarini yetqazib bergan. Qur‘oni karimda Jabroil «muqaddas ruh», «olijanob elchi» nomi bilann tilga olinadi” [6:6]. Mashrab ijodida ham Jabroil aynan shunday voqealarga bog‘lab eslanadi. Faqat uning ismi turlicha shaklda qo‘llanadi: *Jabroil*, *Jibril*, *Jibriyl*, *Jabrail* va yana boshqa shakllar. Ularning bunday shaklda kelishi aruz vazni talabidan kelib chiqqan holda baytda turlicha berilgan.

Hech bilolmayman o‘zumni qaysi qavmiyman bukun,  
Lekin arsh ustida *Jibrildur* mening hamsuhbatim. (Mehribonim qaydasan)  
Jabraildek Mustafoning mulkiga mazbut edim,  
Lomakonni so‘yidin komimg‘a halvo qilgani. (Mehribonim qaydasan)

**Azroil** – “Islom dinida to‘rt bosh farishtadan biri, jon oluvchi farishta. Rivoyatlarga ko‘ra, Azroil dastlab oddiy farishta bo‘lgan, Alloh Odamatoni yaratish uchun farishtalarni yerdan tuproq olib kelishga yuboradi. Yer qarshilik ko‘rsatadi va farishtalar undan bir siqim ham yulib ololmaydilar. Bu ishni faqat Azroil bajarganligi sababli u o‘limdan ustun turuvchi farishta deb hisoblangan. U to‘rt ming qanotli, to‘rt yuzli va tanasida yer yuzida yashovchilar qancha bo‘lsa, shuncha ko‘zi hamda tili bo‘lgan dahshatli mahluq shaklida tasvirlanadi. Azroil odamlar taqdirini biladi, ammo ularning har birining o‘lish vaqtini bilmaydi” [4:227].

Bu muddat yaqinlashganda Alloh taxti oldida o‘sadigan daraxtdan o‘limga mahkum etilgan kishining nomi yozilgan barg uzilib yerga tushar ekan. Shundan keyingina Azroil qirq kun ichida uning jonini olishi kerak ekan. Azroil taqvodorlarning jonini osongina, gunohkorlarning jonini esa qiynab olar ekan. Joni olinayotgan odam Azroilga turli qarshiliklar ko‘rsatsada, pirovard natijada yengilar ekan.



Jon olg'uchi Azroil emas, ul o'zi bilg'il,  
Nevchunki, oni birla men ulfat bo'lub o'ttum (Mehribonim qaydasan).

Farishtalardan yana biri **Mikoil** bo'lib, "...diniy an'anada koinotni moddiy ta'minlovchi farishta hisoblanadi. U Qur'onda Jabroil bilan bir qatorda tilga olinadi. Rivoyatlarda aytilishicha, Mikoil Jabroil bilann birga Odamatoga birinchi bo'lib sajda qilgan, Muhammad (s.a.v) ning ko'ksini yorib, yuragini poklagan. Musulmonlarga Badr jangi boshqa farishtalar bilan birga yordam qilgan" [7:516]. Ammo u haqida Mashrab ijodida uchramagan, baytlarida tilga olinmagan.

Bu bosh farishtalardan tashqari yana boshqa farishtalar ham bo'lib, bulardan biri **Shayton**dir. "U ba'zida Azozil nomi bilan ham uchrab turadi. Shayton (arab.) – islom, xristianlik va boshqalar dinlarning ta'limotlariga ko'ra, yovuz ruh yoki yovuz ruhlarning boshlig'i, dunyodagi yovuzliklarning aybdori, odamlarni gunohga yetaklovchi kuch. Qur'onda talqin qilinishicha, Shaytonni Alloh olovdan yaratgan, keyinchalik amriga itoat qilmagani uchun uni toshbo'ronga sazovor (arabcha «rajim») deb la'natlagan. Lekin Alloh bandalarini uning vasvasalariga aldanishi yoki aldanmasligini sinab ko'rish uchun Shaytonga muhlat bergan. Shuning uchun u barcha odamni yoddan ozdirishga harakat qiladi" [9:9]. Qur'onda Shayton so'zining sinonimi sifatida Iblis iborasi ham qo'llanilgan. Shayton so'zi firibgar, ayyor odamlarga nisbatan ham ishlatiladi. Masalan, quyidagi baytda kibrlangan Shayton Odam Atoga ta'zim qilishdan bosh torib, jannatdan quvilgani voqeasiga ishora qilingan:

Bandalik qilmay Azozil bo'ldi sarkash amriga,  
Rondai dargoh bo'ldi, menki yonmasman hanuz. (Mehribonim qaydasan)

Boshqa baytlarda ham Shaytonning insonlarni yo'ldan urushga harakat qilishi, iymonni sustlashtirmoqchi bo'lishi, unga ergashganlar uning qavmiga kirib insoniylikdan chiqishi haqidagi hadislariga ishora sifatida bitilgan

Yo'lni bog'labdur Azozil qasdi iymon olgani,  
Forig'i andeshai makkor Shayton bo'lmaduk. (Mabdayi nur)  
Uleki, xotirini g'ayrlarga topshirdi,  
Bo'lur Azozili mardud bu qavmni rohbari. (Mabdayi nur)  
Xuruji lashkari Shayton boshingga kelmay kel,  
Kimiki keldi bu dargohga, «rabbano» uchrar. (Mabdayi nur)

Islomiy tasavvurga ko'ra, o'lganlarni Rabbing kim, dining nima, payg'ambaring kim, deb qabrda dastlabki so'roq qiluvchi farishtalar mavjud bo'lib, ular **Munkar va Nakir**dir. "Munkar va Nakir taqvodor bo'lgan mayyitlarni to qiyomat bo'lgunga qadar tinch qo'yadi, gunohkorlarni esa, aksincha, Alloh qancha xohlasa, shuncha azoblaydi. Munkar va Nakir nomlari hadislarida eslatiladi, Qur'onda bu farishtalar nomlari uchramaydi" [7:816]. Mashrab ijodida esa ular kam bo'lsa-da tilga olingan:

Oshiq bo'ldum yuzingga, ko'rmay o'lsam netarman?  
Boyaziddek o'zumni kunda yuzming sotarman,  
*Munkar, Nakir* kirganda lahad ichra yotarman,



Har ne qilsang, ey zohid, jomi maydin totarman,

Barbod berdim may uchun, qo'lda toqat qolmadi. (Mehribonim qaydasan)

Xulosa qilib aytganda, Boborahim Mashrab ijodida islom aqidalariga mos keluvchi ko'plab tushunchalar nomlari talmehga olingan hamda ularni misralarda mazmuniy jihatdan to'raligicha bayon qilishga erishilgan. Mashrab ijodi orqali talmehning barcha namunalarini sharhlash va yetarlicha tahlil va talqin qilish mumkin.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Boborahim Mashrab. Mehribonim qaydasan. –T.: “G‘afur G‘ulom”, 1990.
2. Boborahim Mashrab. Mabdayi nur. –T.: “Fan”, 1994.
3. Qur'oni Karim.
4. O‘zbekiston Milliy ensiklopediyasi. A harfi. –T.: “O‘zbekiston Milliy ensiklopediyasi” Davlat ilmiy nashriyoti. 2001-2002.
5. O‘zbekiston Milliy ensiklopediyasi. I harfi. –T.: “O‘zbekiston Milliy ensiklopediyasi” Davlat ilmiy nashriyoti. 2001-2002.
6. O‘zbekiston Milliy ensiklopediyasi. J harfi. –T.: “O‘zbekiston Milliy ensiklopediyasi” Davlat ilmiy nashriyoti. 2001-2002.
7. O‘zbekiston Milliy ensiklopediyasi. M harfi. –T.: “O‘zbekiston Milliy ensiklopediyasi” Davlat ilmiy nashriyoti. 2001-2002.
8. O‘zbekiston Milliy ensiklopediyasi. O harfi. –T.: “O‘zbekiston Milliy ensiklopediyasi” Davlat ilmiy nashriyoti. 2001-2002.
9. O‘zbekiston Milliy ensiklopediyasi. Sh harfi. –T.: “O‘zbekiston Milliy ensiklopediyasi” Davlat ilmiy nashriyoti. 2001-2002

